

“TASDIQLANGAN”

“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki
Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy
yig‘ilishi

Kuzatuv Kengashi Raisi
N. Kurdiani _____
“ ___ ” _____ 2022 y. ___-sonli Qaror

M.O‘.

“RO‘YXATGA OLINGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Moliya vazirligi

Vazir o‘rinbosari
O.R. Isakov _____
“ ___ ” _____ 2022 y. _____-sonli

M.O‘.

**“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki
aksiyalarini qo‘shimcha ravishda chiqarish to‘g‘risidagi qaror**

Berilgan identifikatsiya raqami:																			
----------------------------------	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--	--

Egasining nomi yozilgan 349 160 772 dona oddiy hujjatsiz aksiyalar. Aksiyalarning nominal qiymati 1000 so‘m.

Aksiyalarni joylashtirish yopiq obuna orqali amalga oshiriladi.

Aksiyalar chiqarilishi beshinchi hisoblanadi.

“TBC Bank” ATB Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining “ ___ ” ___ 2022 yil ___-sonli Qarori bilan tasdiqlangan.

“TBC Bank” ATB Aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishining “ ___ ” ___ 2022 yil ___-sonli Qarori asosida.

Emitentning joylashgan joyi, pochta manzili, aloqa telefonlari va elektron pochta manzili:
O‘zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko‘chasi, 10B. Tel.:
(78) 777-27-27. Elektron pochta manzili: contact@tbcbank.uz.

Boshqaruv Raisi

S. Tetrashvili

(F.I.Sh.)

(imzo)

Bosh buxgalter

F. Atarbayev

(F.I.Sh.)

(imzo)

Muhr

“ ___ ” _____ 2022 y.

Qimmatli qog‘ozlarni chiqarish bo‘yicha hujjatlarni tayyorlash xizmatini ko‘rsatgan investitsiya maslahatchisining nomi: “DALAL STANDARD” MChJ

Investitsion maslahatchi bilan tuzilgan shartnoma raqami va sanasi:

_____20___ yildagi ___-sonli shartnoma.

Investitsiya maslahatchisi rahbarining imzosi va F.I.Sh.:

N.M. Usmondinov

(F.I.Sh.)

(imzo)

Muhr

“ ___ ” _____ 20__ y.

1. Mazkur chiqarilgan egasining nomi yozilgan aksiyalar turi: oddiy.

2. Aksiyalarni chiqarish shakli: hujjatsiz.

3. Chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymati: 1000 so‘m.

4. Chiqarilgan aksiyalar soni: 349 160 772 dona.

5. Chiqarilgan aksiyalar umumiy hajmi: 349 160 772 000 so‘m.

6. Chiqarilgan aksiyalar egasining huquqlari:

Aksiya egasi quyidagi huquqlarga ega:

uni Bank aksiyadorlari reestriga kiritish;

investitsiya vositachisidan depo hisobvarag‘idan o‘ziga aloqador ko‘chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar shaklida olish;

Bank tugatilgan taqdirda mol-mulkning bir qismini o‘z ulushiga muvofiq olish;

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishida ovoz berish yo‘li bilan Bankni boshqarishda ishtirok etish;

Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida belgilangan tartibda to‘liq va ishonchli axborot olish;

olingan dividendlarni erkin tasarruf etish;

qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organida, shuningdek, sudda o‘z huquqlarini himoya qilish;

unga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplanishini talab qilish;

o‘z manfaatlarini ta‘minlash va himoya qilish maqsadida uyushma va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga qo‘shilish;

mavjud bo‘lgan yo‘qotishlar, shu jumladan qimmatli qog‘ozlarni sotib olishda foyda yo‘qotish bilan bog‘liq xavflarni sug‘urta qilish;

shuningdek, qonun hujjatlarida va Bank Ustavida nazarda tutilgan boshqa huquqlar.

7. Bank Ustavida va/yoki aksiya chiqarish to‘g‘risidagi qarorda mazkur chiqarilayotgan aksiyalarni sotib olish bo‘yicha ma‘lum cheklovlar: Bank Ustavida 6.7-bandda va 6.9-bandda nazarda tutilgan cheklovlar mavjud. Ushbu chiqarilayotgan aksiyalarni chiqarish to‘g‘risidagi qarorga ko‘ra, ular “TBC BANK GROUP PLC”, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining yopiq obunasi orqali joylashtirildi.

8. Bankning Ustav kapitalining hajmi: 438 202 053 000 so‘m.

9. Ilgari joylashtirilgan aksiyalar soni: Ilgari joylashtirilgan oddiy aksiyalar soni 438 202 053 dona. Imtiyozli aksiyalar Bank tomonidan chiqarilmagan.

10. Ilgari joylashtirilgan obligatsiyalar soni (turi va xillari bo‘yicha taqsimlangan holda ko‘rsatilgan): Ilgari obligatsiyalar chiqarilmagan.

11. Ushbu chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish shartlari va tartibi.

11.1. Ushbu chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish usuli (ochiq yoki yopiq obuna): Ushbu chiqarilgan aksiyalar “TBC BANK GROUP PLC”, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining yopiq obunasi orqali joylashtirilmoqda.

11.2. Ushbu chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish muddati:

Aksiyalarni joylashtirish aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab uch oy ichida amalga oshiriladi.

Aksiyalarni joylashtirishning boshlash sanasi: aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab birinchi kun.

Aksiyalarni joylashtirishning tugash sanasi: aksiyalar chiqarilishining oxirgi ulushi joylashtirilgan kun, lekin aksiyalar chiqarilishi davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan boshlab uch

oydan kechiktirmagan holda.

11.3. Ushbu chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirish tartibi:

Aksiyalarni joylashtirish tashkil etilmagan birjadan tashqari qimmatli qog'ozlar bozorida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda fuqarolik va huquqiy bitimlar tuzish yo'li bilan amalga oshiriladi:

Ushbu chiqarilgan 210 345 612 dona oddiy aksiyalar "TBC BANK GROUP PLC" kompaniyasiga;

Ushbu chiqarilgan 69 407 580 dona oddiy aksiyalari Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankiga;

Ushbu chiqarilgan 69 407 580 dona oddiy aksiyalari Xalqaro moliya korporatsiyasiga.

Aksiyalarni joylashtirish anderrayterlar ishtirokisiz amalga oshiriladi.

11.4. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysining tashkiliy-yuridik shakli, joylashgan joyi, pochta manzili, telefon raqami va qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni qayd etuvchi investitsiya vositachisining to'liq nomi:

Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi to'g'risidagi ma'lumotlar: "Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi" davlat korxonasi. 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107. Telefon: (71) 267-37-42

Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarni qayd etuvchi investitsiya vositachisi to'g'risidagi ma'lumotlar:

"DALAL STANDARD" mas'uliyati cheklangan jamiyat. 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik shoh ko'chasi, 107. Telefon: (71) 268-04-01.

11.5. Ushbu chiqarilgan joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olish bo'yicha imtiyozli huquqni amalga oshirish tartibi:

Mazkur aksiyalarni chiqarish "TBC BANK GROUP PLC", Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki va Xalqaro moliya korporatsiyasining yopiq obuna yo'li bilan joylashtirilayotganligi sababli joylashtirilayotgan aksiyalarni sotib olish bo'yicha imtiyozli huquqni qo'llash ko'zda tutilmagan.

11.6. Ushbu chiqarilgan aksiyalarni joylashtirish qiymatini aniqlash tartibi yoki narxi (narxlari): 1 149,27 so'm.

11.7. Aksiyalar uchun to'lov shartlari va tartibi:

Aksiyalar uchun to'lov pul mablag'lari yordamida O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasi – so'mda amalga oshiriladi.

Pul mablag'larisiz aksiyalar uchun to'lov ko'zda tutilmagan.

Aksiyalar uchun to'lov naqd pulsiz shaklda Bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

So'mda ochilgan hisob rekvizitlari: "TBC Bank" ATBda 2983 0000 2000 0118 0001

Bank kodi: 01 180

Valyuta hisob rekvizitlari:

Beneficiary: JSCB TBC BANK

Tax number: 207318613

Beneficiary's address: 10B FIDOKOR STREET, MIRABAD, TASHKENT, REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Beneficiary's Account: 21002840200001180001

Beneficiary's bank: IPAK YULI JOINT-STOCK INNOVATION COMMERCIAL BANK TASHKENT, UZBEKISTAN

SWIFT: INIPUZ22

11.8. Aksiyalarning ushbu chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda, emitent tomonidan aksiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'larni qaytarish tartibi:

Aksiyalarning chiqarilishi haqiqiy emas deb topilgan taqdirda:

aksiyalar chiqarilishi haqiqiy emas deb e'lon qilingan kundan e'tiboran ikki ish kuni ichida muhim fakt to'g'risidagi ma'lumotlar (chiqarilish haqiqiy emas deb topilganligi, 28-sonli muhim fakt) Bankning www.tbcbank.uz korporativ veb-saytida va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-sayti – Yagona korporativ axborot portali www.openinfo.uz da e'lon qilinadi;

aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan e'tiboran o'n kun ichida aksiyalar uchun to'lov sifatida olingan mablag'lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytariladi.

12. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlar chiqarilishi to'g'risidagi axborotni emitent tomonidan oshkor qilish tartibi:

Aksiyalarni chiqarish to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning www.tbcbank.uz korporativ veb-saytida va qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining rasmiy veb-sayti – Yagona korporativ axborot portali www.openinfo.uz da joylashtiriladi.

Aksiyalarni qo'shimcha chiqarish to'g'risidagi qarorning nusxasi va asl nusxasi bilan O'zbekiston Respublikasi, 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Fidokor ko'chasi, 10B uy manzili bo'yicha tanishishingiz mumkin. Tel.: (78) 777-27-27.

13. Boshqa ma'lumotlar:

13.1. Bankning to'liq va qisqartirilgan nomi:

“TBC Bank” aksiyadorlik tijorat banki, “TBC Bank” ATB.

13.2. Bankni ro'yxatdan o'tkazish haqidagi ma'lumotlar:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ro'yxatga olingan. 2022 yil 17 martdagi 6/2-sonli Boshqaruv Qarori.

13.3. Bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya:

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2022 yil 17 martdagi 86-sonli litsenziya.